ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2025.5/1

www.ilmsarchashmalari.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5/1-son (may 2025)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2025

▪ Asosiy kuzatmalar statistikasi:

▪ Imlo xatolari koʻpligi talaffuz va yozuv oʻrtasidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi.

▪ Artikllardan notoʻgʻri foydalanish – oʻzbek tilida artikllarning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

▪ Ayol talabalar imlo va tinish belgisi xatolarini erkaklarga qaraganda kamroq qilgan.

▪ L1 transfer, ayniqsa, soʻz tanlash va predloglarda sezilarli, oʻzbekcha fikr tuzilmalari ingliz tiliga notoʻgʻri koʻchirilgan.

▪Nisbatan kam uchraydigan xatolar ot, feʼl, oʻchirish va qoʻshish bilan bogʻliq xatolar, asosiy grammatik bilimlarning mavjudligini koʻrsatadi.

Topshiriq turlari boʻyicha xatolar statistikasi:

▪1-topshiriq (tavsiflovchi) – imlo va leksik xatolar koʻp.

▪2-topshiriq (argumentativ) – tinish belgisi va jumla tuzilmasi xatolari ustun.

Oʻqitish uchun xulosalar:

▪Imlo va lugʻat boyligini oshirish uchun fonetik asosdagi mashqlar tavsiya etiladi.

▪Artikllarni oʻrgatishda kontrastiv yondashuv foydali.

▪Mantiqiy fikrlash va jumla qurish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun mashqlar 2-topshiriqqa yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda oʻzbek EFL oʻquvchilarining yozma nutqida uchraydigan asosiy til xatólarini korpus asosida tahlil qilindi. Xatolar orasida imlo, artikllardan foydalanish, tinish belgisi, va leksik tanlov ustunlik qildi. Bu holat ingliz va oʻzbek tillari oʻrtasidagi grammatik va semantik tafovutlar, ayniqsa artikllar tizimi yoʻqligi va L1 transfer bilan izohlanadi. Xatolar tahlili, ayniqsa, resurs cheklangan muhitlarda, oʻqituvchilarga oʻquvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va yoʻnaltirilgan taʼlim tashkil etishda yordam beradi.

Sketch Engine kabi korpus vositalari taʼlimda analitik yondashuvlarni qoʻllab-quvvatlaydi va oʻquvchilarning oʻz-oʻzini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Gad, R. (2018). Xatolarni tahlil qilish boʻyicha psixolingvistik nuqtai nazar: zamon aspektini olish. Misr ingliz tili va adabiyoti tadqiqotlari jurnali.

(2). Muftoh, M. (2023). Ikkinchi tilni oʻzlashtirishda xatolar tahlili (ITOʻ). Grammatik xatolarning turlari va chastotalari. Kolumbiya amaliy tilshunoslik jurnali.

(3). McDowell, L. (2020). Xatolarni tahlil qilish: uslubiy tadqiqot va qoʻllash. JALT konferensiyadan keyingi nashri.

(4). Al-Sobhi, B. (2019). Til oʻrganuvchilarning xatolarining nozik jihati – kontrastli tahlil, xatolar tahlili va tillararo. Taʼlim va savodxonlik tadqiqotlari xalqaro jurnali.

(5). Thao, MTP (2020). Kontrastiv tahlil gipotezasiga va xato tahliliga koʻra, L2 sotib olishda L1 ning roli. "Taʼlim va amaliyot jurnali".

(6). Xalifa, M. (2018). Kontrastiv tahlil, xatolar tahlili, belgilar nazariyasi, universal grammatika va monitor nazariyasi va ularning ikkinchi tilni oʻrganishga qoʻshgan hissasi. "Xalqaro tilshunoslik" jurnali.

(7). Naeni, MB (2016). Ingliz tili L1-fors tili L2 katta yoshdagi oʻquvchilarning oʻzaro tillarini morfologik tahlili. ITOʻ oʻzgarishi nuqtai nazaridan. Jahon fan, muhandislik va texnologiya akademiyasi.

(8). Metvalli, V. (2020). ITOʻda tillararo va ichkilashtirish oʻrtasidagi korrelatsiya. Til oʻrganish boʻyicha Evropa konferensiyasi.

(9). Amiri, F., Puteh, M. (2017). Error Analysis in Academic Writing. A Case of International Postgraduate Students in Malaysia. Advances in Language and Literary Studies.

(10). Jayathilake, C. (2019). Correcting Errors: The Relative Efficacy of Different Forms of Error Feedback in Second Language Writing. Vidyodaya Journal of Humanities and Social Sciences.

Matniyazov Xasan Kamolovich (Maʼmun universiteti dotsenti)

BOʻLAJAK JISMONIY TARBIYA OʻQITUVCHILARGA JISMONIY MASHQLARNI OʻRGATISH VA NAZORAT QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarga jismoniy mashqlarni o'rgatish va nazorat qilish to'g'risida yozilgan bo'lib, unda mashqlarning qonuniyatlar asosida o'rganilishi va uni qanday nazorat qilish, mashqlarni bajarishga intilishini murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Dastlab, mashqlar kompleksining bir bo'lagini oddiyroq, keyin esa murakkabroq sharoitda takomillashgan holda bajarishish. Talabadan bajarilishi lozim bo'lgan mashqlarning murakkabligi, ularning jismoniy holatlari, tayyorgarlik darajalariga bog'lab talab etishini borasida fikrlar berilgan.*

***Kalit so'zlar**: ta'lim, jismoniy tarbiya, talaba, sport, mashg'ulot, nazorat qilish, o'rgatish, tarbiya, jarayon, ko'nikma, malaka, mashq.*

ПРЕПОДАВАНИЕ И КОНТРОЛЬ ЗА ФИЗИЧЕСКИМ УПРАЖНЕНИЕМ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

***Аннотация.** Эта статья посвящена обучению будущих преподавателей физической культуры физическим упражнениям и их контролю. В ней рассматривается изучение упражнений на основе закономерностей и то, как можно контролировать их выполнение, добиваясь усложнения процесса выполнения упражнений. Сначала комплекс упражнений выполняется в более простых условиях, а затем, в усовершенствованной форме, в более сложных условиях. Ожидаемая сложность выполняемых упражнений зависит от физического состояния студентов и уровня их подготовки, и в статье приводятся размышления по этому поводу.*

***Ключевые слова:** образование, физическое воспитание, ученик, спорт, обучение, наблюдение, учение, воспитание, процесс, умение, мастерство, упражнение.*

TEACHING AND SUPERVISING PHYSICAL EXERCISES TO FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

***Annotation.** This article is written about teaching and controlling physical exercises for future physical education teachers. It discusses how exercises are studied based on principles and how to control them, with the goal of making the exercises more complex to encourage better performance. Initially, a part of the exercise complex is performed in simpler conditions, and then it is gradually improved and performed in more complex conditions. The complexity of the exercises required from the student depends on their physical condition and preparation level, and the article provides thoughts on this matter.*

***Keywords:** education, physical education, student, sport, training, supervision, teaching, upbringing, process, skill, skill, exercise.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya o'qitishining ikki qirrasi hisoblanadi. O'rgatish o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakasini talabaga bosqichma-bosqich berib, undagi jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Tarbiya esa o'qituvchining ma'lum maqsadшga yo'naltirilgan muntazam ravishda o'rganuvchining ma'naviyati va ruhiyatiga ta'siri. Shu bois ta'lim va tarbiya doimo uyg'unlikda olib boriladi[2]. Nazariy va amaliy xarakterdagi o'quv mashg'ulotlari talaba jismoniy madaniyatining asosini tashkil etadi. Bunday mashg'ulotlar o'quv rejasida belgilangan soatlar davomida amalga oshiriladi. Nazariy bilimlar berish ma'ruzalar tarzda amalga oshiriladi. Amaliy qism o'quv-uslubiy va o'quv-mashg'ulotlar shaklida tashkil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Guruhlarda va alohida o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish Davlat ta'lim standartlari talablarini to'liq bajara olmayotigan talabalarining ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish uchun o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat ham o'kuv darslarida amalga oshiriladi. Unga joriy va oraliq nazorat talablarini bajargan talabalargina kiritiladi [5;64-b.]. Ma'lum sabablarga ko'ra, amaliy mashg'ulotlardan ozod etilgan talabalari yozma tarzda yakuniy nazorat topshiradi.

Mashqlarni ongli ravishda, sidqidildan bajarishga yo'llashda ularning jismoniy holatlarini, o'qishga munosabatlarini yanada yuqori darajaga ko'tarishni, har bir mashqni bajarishida, uning maqsadi, vazifasi, muayyan maqsadni aniq ko'z oldiga keltirish, mashq bajarish texnikasini, uning organizmga ta'sirini aniqlash; jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida hosil qilingan tajribalarni taxdil qilib, ularni umumlashtirish lozim deb hisoblaymiz [4-137-b.]. Faollik talabada dars jarayonini to'g'ri tashkil etilsagina shakllanadi.

Buni amalga oshirish dastlabki davrlarida ancha qiyin bo'ladi. Talabaning mashqlarni mustaqil holda bajarish uni o'zlashtirishini mustahkamlaydi, shuningdek, bu undagi qiziqishlarni orttiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Darslardagi muntazamlilik va sodda mashqlardan murakkablariga o'tib borish, ilgari erishilgan natijalarni mustahkamlaydi. O'quv darslar va mashqlar orasidagi tanaffuslar uch kundan oshmasligi lozim. Zero, talaba tayyorgarligining samaradorligini kamaytiradi, yetarli darajadagi natijaga erishib bo'lmaydi. Mashqlarini bajarishga intilish uni murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Dastlab, mashqlar kompleksining bir bo'lagini oddiyroq, keyin esa murakkabroq sharoitda takomillashgan holda bajarishiga erishiladi. Talabadan bajarilishi lozim bo'lgan mashqlarning murakkabligi ularning jismoniy holatlari, tayyorgarlik darajalariga bog'lab talab etishni ta'kidlash lozim. Erishilgan natijalarni, olingan bilimlarni mustahkamlash – hosil qilingan harakat ko'nikmalarini bir xil darajada, bir meyorda saqlay olish, jismoniy va maxsus sifatlarni imkon boricha ko'proq vaqt davomida saqlash zarur [1].

Jismoniy mashqlarini bajarishga o‘rgatish metodi – o‘qituvchini talabaga bilim berish bilan unda ma’lum darajadagi ko‘nikmalar va maxsus jismoniy jihatlarni shakllantirish. Pedagogik amaliyotida og‘zaki tushuntirish, ko‘rgazmalilik metodlaridan alohida yoki aralash holda qo‘llaniladi. U yoki bu uslubdan foydalanish o‘quv matarialining mazmuni, ta’limning maqsadi, o‘qituvchini o‘zining tayyorgarlik darajasiga va uning uslubiy mohirligiga bog‘liq holda olib boriladi.

Og‘zaki tushuntirish o‘rganuvchi bilan suhbat qilish, hikoya qilish, izohlash kabilar bilan olib borilishi hammamizga ma’lum. Ko‘rgazmalilik usulida videofilm, fotosurat, jurnallaridagi rasmlar, chizmalar namoyish etiladi.

Odatda, ko‘rsatilayotgan mashqlarni malakali mutaxassis tomonidan sharxdanishi muhim hisoblanadi. Ko‘rsatish – mashqlar bajarilishi oldidan bajarilishi maqsadga muvofiq [6].

Amaliy uslub talabada harakat ko‘nikmalarini yuzaga kelishi, uni rivojlanishi hamda takomillashuvi, jismoniy va maxsus sifatlarni hosil bo‘lib, ularni mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu, odatda, mashqlarni to‘la yoki uning qismlarini takror holda bajarish, talabaga topshiriq berib, murakkablashtirib borish bilan erishiladi. Jismoniy mashqdar bajarishni o‘rgatishida mashqlarning og‘ir-yengilligiga ham e’tibor berish lozim. Mashqlarni bajarishga o‘rgatishda tanishtirish, ko‘rsatib berish, takomillashtirish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish bilan olib boriladi.

Tanishtirishda mashqining nomini aytamiz va uni to‘liq holda qanday bajarishni ko‘rsatamiz hamda bu mashqni bajarishda organizmga ta’sirini izohlaymiz; mashqning alohida qismlarini bajarib, uni amalga oshirish yo‘llarini – texnikasini ko‘rsatamiz, mazkur mashqni qanday bajarishini nazorat qilamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talaba ushbu mashqni to‘la tasavvur etib olgunicha, uni bir necha marta takrorlab ko‘rsatish lozim. Mashqni o‘qituvchini o‘zi bajarib ko‘rsatishi yoki tayyorgarligi yaxshi bo‘lgan talaba amalga oshirish lozim. Murakkab mashqdar to‘laligicha keyin uning qismlarini qanday bajarishni izohlab ko‘rsatishi lozim. Talaba osonroq o‘zlashtirishi uchun uni sekin bajarish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Talabalar yangi meyoriylarni bajarishini o‘rganishlari ularda ilgari hosil bo‘lmagan harakat ko‘nikmalarini yuzaga keltiradi. Asosiysi, mashqlarni mustaqil bajarishiga o‘rganib, unga moslashish hosil qilish, o‘rganib olish, o‘rganuvchining tayyorgarligi, o‘qituvchining kasbini mahoratiga bog‘liq.

Takomillashtirish mashqlarini o‘rgatishda asosiy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Bunda o‘rganuvchi mashqning mazmun va mohiyatiga tushunib yetganligi muhim mashqni takror va takror bajarish, astasekin jismoniy yukni oshirib borish tarzida olib boriladi. O‘qituvchi mashq bajarilishini kuzatib boradi, bunda talabaning tayyorgarlik darajasini hisobiga olib, toliqib qolmasligiga e’tibor qaratadi.

Ehtiyot choralarini ko‘rish va yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni o‘qituvchi tomondan bartaraf etib borish o‘rgatishning muhim tomoni hisoblanadi. Xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi quyidagilarni bajarishi lozim:

–mashqni aniq va to‘g‘ri tushuntirib, uni bajarib ko‘rsatishi;

–oldin o‘rgangan mashq unsurlaridan foydalanishi;

–talaba mashqni bajarayotganda yordam ko‘rsatishi;

–mashq bajarayotgan talabani jismoniy tayyorgarlik darajasiga ko‘ra vazifa belgilashi;

–o‘quv mashg‘ulotlari amalga oshiriladigan joyni e’tibor bilan tayyorlatishi.

Mashq bajarishida qiynalayotgan talabaga o‘qituvchi doimo yordam berishi lozim. O‘qituvchining vazifasi talaba bajarishi lozim bo‘lgan mashqni osonroq o‘rganib olib, shikastlanishini oldini olishi kerak. Ehtiyot choralarini ko‘rish, ya’ni himoyalash har doim zarur.

O‘quv jarayonida bir haftada o‘tkaziladigan darslarda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni jadvalga qo‘yilishi ham talabalarning jismoniy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarligi yaxshi bo‘lganlariga ham hordiq zarurligini esdan chiqarmasligimiz kerak. O‘quv mashg‘ulotlari davomida talabalarda harakat ko‘nikmalari jismoniy va sifat ko‘rsatkichlari shakllanib boradi. Harakat ko‘nikmalari deganda o‘rganish jarayonida muayyan harakatlarni avtomatlashgan darajagacha yetkazilishini tushunamiz. Biror harakatni shartli refleks darajasiga yetgan maromdagi holat desak ham, xato bo‘lmaydi. Muayyan harakatini ko‘p marta takrorlash bilan bosh miyada mustahkam shartli refleks bog‘lamlari, boshqacha aytganda, dinamik stereotip yuzaga keladi.

Harakat ko‘nikmalari muayyan vaqt davomida hosil bo‘ladi. Bu ayrimlarda tez, boshqalarida ma’lum vaqtdan keyingina yuzaga keladi. Bunga talabaning jismoniy tayyorgarligini va rivojlanganligini turlichaligi; qancha vaqtda charchashi; o‘rgatishda qo‘llanilayotgan uslubni noto‘g‘ri tanlangani, darsni to‘g‘ri tashkil etilmaganligi kabi omillar sabab bo‘ladi.

Talabaning jismoniy sifatlari ulardagi kuch, tezlik, chidamlilik, bardoshlilik, chaqqonlikdir. Har bir jismoniy sifatni rivojlantirish va takomillashtirish uchun maxsus uslublardan foydalaniladi. Tezlik ma'lum vaqt davomida harakatlarni bajarish hisoblanib, harakat reaksiyalarini tezligi, alohida harakatlarni tezligicha ajratiladi. Harakat tezligi eng kam vaqtda siklik va atsiklik harakatlarni bajarishdir. O'quv darslarida talabalarga tezlikni oshirish zarurligini «sezdirishga» harakat qilamiz. Tezlikni oshirishni talab qiladigan mashqdarni muntazam ravishda bajarish bosh miyadagi nerv markazlari orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa yurak, ichki a'zolar, muskullarning biomexanik faoliyatini ularda kislorod yetishmagan davrda ham ma'lum maromdagi faoliyatni ta'minlaydi.

Chidamlilik – bu odamni ko'p vaqt davomida ish qobiliyatini yuqori darajada bo'lishiga erishish hisoblanib, uni umumiy chidamlilik deyilib, alohida mashq bajarishdagisiga maxsus deyish odat bo'lgan. Talabalardagi bu qobiliyatni mustahkamlashda barcha usullar qo'l kelaveradi.

Chaqqonlik – kutilmagan vaziyatdagi murakkab, maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan maxsus harakat. Chaqqonlik eng murakkab sifat hisoblanib, bir aniq harakat faoliyatining ikkinchisi bilan tez almashtirib ish bajarish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, maxsus sifatlar talaba turli mashqlarni bajarishda harakat koordinatsiyalarini, muvozanatni, noqulay omillar ta'sirida, vaqtincha aniq amalga oshira olish bilan hosil qilinadi.

Jismoniy takomillashtirish talabaning jismoniy holatini yaxshilash, unda bilim, malakani qulay sharoitga mos keladigan holga, yani mashqlarni muntazam, aniq bajarishga erishish. Bu pedagogning mahorati, tajribasi, o'z vazifasiga sidqidildan munosabati, o'quv jarayonini, mashg'ulotlarni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishi kabilar.

Jismoniy mashqlarni talabalarga amalda bajarishga o'rgatish jismoniy madaniyatni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, takomillashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бондаревский Е.Я. Педагогические основы контроля за физической подготовленностью учащейся молодежи. Автореф. дис. ... д-ра пед. наук, М., 1993, 45 с.

(2). Махкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячиларнинг мулоқот маданиятини шакллантириш. Дисс.п.ф.н., Тошкент, 2002, 170-бет.

(3). Черданцева Т.Р., Афонина Л.Е., Соколова А.В., Беланова Е.С. Использование подвижных игр в соревновательно-игровой деятельности гандболиста. Методическое пособие, Новокузнецк, МОУ ДПО ИПК, 2008, 100 с.

(4). Salayev T.K. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Gandbol). O'quv qo'llanma, "Lesson Press", Toshkent, 2022, 127-bet.

(5). A.R.Taymurodov, M.N.Shukurov, Q.Q.Rasulov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Kurash usullarini o'rgatish metodikasi, T., 2024.

(6). Jurayev, A. Kurashchilarning musobaqaga tayyorgarlik bosqichlari. Toshkent, O'zDJTI, 2015.

Каландаров Сардар Ибрагимович (доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры педагогики и психологии Ургенчского государственного университета; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

СВОБОДНОЕ ОБУЧЕНИЕ И СОТРУДНИЧЕСТВО: ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СЕЛЕСТЕНА ФРЕНЕ

Аннотация. *Статья исследует педагогическую систему французского педагога-новатора Селестена Френе, основанную на принципах свободного самовыражения, сотрудничества и связи обучения с жизнью. Рассматривается историческое значение и современная актуальность педагогических идей Френе в контексте трансформации образования.*

Ключевые слова: *Селестен Френе, свободное воспитание, школьная типография, школьный кооператив, свободные тексты, натуральный метод, педагогические инварианты, педагогика сотрудничества.*

Kalandarov Sardar Ibragimovich (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

ERKIN O'QITISH VA HAMKORLIK: SELESTEN FRENENING PEDAGOGIK TIZIMI

Annotatsiya. *Maqolada fransuz novator o'qituvchisi Selesten Frenening o'zini erkin ifoda etish, hamkorlik qilish va o'rganishni hayot bilan bog'lash tamoyillariga asoslangan pedagogik tizimi o'rganila-*

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

FIZIKA-MATEMATIKA		
Alishev Abdumannon, Baxtiyorova Kamola	Ba'zi integro-differensial tenglamalar sistemasining asimptotik integrallash	**3**
Azimov Qaxramon, Rahimov Boyhuroz Shermuhammadovich	Sezgirlikni tahlil qilishning bir usuli haqida	**8**
Axmedov Nasriddin Baxodirovich	Elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqlarning xususiy chastotalari	**11**
Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich, Ergasheva Nilufar Mansurovna	Tovush tezligidan katta bo'lmagan tezlikda harakatlanuvchi nuqtaviy manbadan hosil bo'ladigan to'lqin xususiyatlari	**16**
Usarov Begzod O'ralovich	"To'rtburchaklar" usuli va uning xossalari	**24**
Nushtayeva Ozoda Xasilovna	O'z-o'zini tozalash funksiyasiga ega bo'lgan quyosh batareyasi yuzasining ifloslanish darajasini masofadan monitoring qilish uchun qurilma	**32**
Vaisova Moxira Davlatboyevna, Salayeva Rohila Rustamovna	$\mathbb{C}^2$ fazoda α-subgarmonik funksiyaning integral xossasi	**38**
FALSAFA		
Azimov Ulug'bek Abduxalilovich	Ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlarning roli	**44**
Shonazarov Jamshid Shuhratovich	Davlat xizmatchilari faoliyatida ma'naviy-axloqiy mezonlarni tashkil etish muaommolari va yechimlar	**47**
Joldasbayev Oralbay Yernazarovich	Berdaq ijtimoiy-falsafasiy qarashlarida tenglik va adolat kategoriyalarining tahlili	**50**
Ahmedov Farruh Nurmuhammad o'g'li	Yangi O'zbekiston yoshlarining g'oyaviy tarbiyasi	**53**
Rustamov Ramz Rizoqulovich	Jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yo'llari	**58**
Jamolov Davronbek Baxtiyor o'g'li	Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda ta'sir etuvchi omillar	**61**
Ochilov Sarvar Safayevich	Hazrat Ali shaxsining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy muhit	**64**
Utegenova Jamila Djolmurzayevna	Bioetika sohasini shakllantirish mexanizmlari	**68**
TILSHUNOSLIK		
Xidirova Maxfuza Amirqulovna	Yovvoyi sutemizuvchilar nomlarining lingvostatistik va tematik tahlili	**71**
Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich	Diskurs kognitiv tahlilining kontekstual aspekti	**76**
Irisovna Sayida Abdiyeva	Miqdor ma'nosini ifodalovchi birliklarning so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni	**78**
ADABIYOTSHUNOSLIK		
Allashev Akbarbek Anvar o'g'li	Adabiyotda konflikt va ijtimoiy o'zgarishlar o'rtasidagi aloqadorlik	**81**
Qozaqova Sayyora Sobitxon qizi	"Boburnoma" sujeti va tavsiflash prinsipi	**84**
Qarshibayeva Uljan Davirovna	Balzak asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muhit ta'siri	**87**
Rakhimova Dilfuza Masharip qizi	Uilyam Golding asarlarini o'rganishning tamoyillari	**91**
Kenjayeva Umida, Oydinova Parizod	Adekvat topishmoqlar	**94**
JURNALISTIKA		
Egamnazarov Bobur	Jurnalistikada ixtisoslashuv va qurilish tematikasini yoritishdagi o'ziga xosliklar	**99**
Kallibekova Gulnara Palbekovna	Leksik birliklarni to'g'ri qo'llashda jurnalist mahorati	**101**

PEDAGOGIKA		
Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich	Talabalarni milliy kontent asosida o‘qitishning modeli	**106**
Toshpo‘latova Inobat Ulug‘bek qizi	Maktabgacha katta yoshdagi bolalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	**109**
Abduraxmonava Muxayoxon Abduraximovna	Talabalarni o‘qitishda STEAM ta’limining qollanilishi	**111**
Axmedov Akmal Yusufovich	Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak pedagog ijtimoiy va kasbiy faoliyati asosidir	**115**
Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna	Loyihaga asoslangan ta’lim metodining dars jarayonida qo‘llanilishi va bunda pedagogning roli	**118**
Abdullayeva Saida Malikovna	CBI yondashuvining chet tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati	**120**
Xuramov Ilxom Panjiyevich	Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish	**125**
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari	**129**
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	Kurash bilan shug‘ullanuvchi talaba sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik rejasi tamoyillari	**132**
Urunova Shaxlo Rafikovna	Terminologik leksikani o‘qitishda zamonaviy interaktiv yondashuvlar	**135**
Nizamova Umida Sandjarovna	Nofilologik yonalishi talabalariga chet til o‘qitishda produktiv yondashuvning ahamiyati	**137**
Juginisova Juldiz Imnixashimovna, Asanova Uldawlet Sagindikovna, Saxanova Liza Jamixatovna	Masofaviy o‘qitishni tashkil etish va boshqarish	**140**
Shadiyeva Nigora Sharipovna	Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	**143**
Qutlimuratova Barno Xursandbekovna	Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan o‘zbek talabalari: korpus yordamida xatoliklar tahlili	**147**
Matniyazov Xasan Kamolovich	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatish va nazorat qilish	**150**
Каландаров Сардар Ибрагимович	Свободное обучение и сотрудничество: педагогическая система Селестена Френе	**153**
Айбергенова Айнура Рустемовна	Развитие навыков письменной речи у студентов-медиков при обучении РКИ	**156**
Исраилов Джахонгирхон Джамшидхонович	Типы медицинских текстов и их применение в обучении английскому языку будущих врачей	**159**
Hodiyeva Yulduz Yunusovna	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun SCAMPER texnologiyasidan foydalanish	**162**
Irbutaeva Nigora Dilshodovna, Makhmudova Asal Malikovna, Normamatova Maftuna Fozilovna	Studying Medical Terms by Non-Russian-Speaking Students in Russian Language Classes at Medical Universities	**165**
Xakimova Munira Xabibullayevna	Main Factors Which are Influenced on Reading Skills	**169**
Arslonbekovna Ra’no Arslonbekova	Transforming traditional teaching through ESP	**171**
ILMIY AXBOROT		
Hamrayeva Saida Ismailovna	“Ma’lumotlar intellektual tahlili” fani uchun CRISP-DM metodologiyasi	**175**
Madatov Xabibulla Axmedovich	Bazis so‘zlar bilan ishlovchi elektron tizim: lingvistik va texnologik qarashlar	**178**
Mamatqulov Rustam Ubaydullayevich	Navro‘zning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanish bosqichlari	**181**
Maxsudova Xolisxon Ummatovna	Mashinasozlik terminologiyasining lingvistik tuzilishi va kontekstual foydalanish	**184**
Maxammadjonova Mushtariybonu Jamoliddin qizi	Ingliz va o‘zbek tillarida “motam” semantik maydonining o‘ziga xos xususiyatlari	**186**

Yuldashev Doniyor Taxirovich, Pulatova Muhayyo Azimboyevna	Ingliz va o‘zbek tilidagi atoqli otlarning tarjima metodlari	**189**
Jurayeva Iroda Axmedovna	J.K.Roulingning “Garri Potter” asaridagi antroponimlarning milliy-lisoniy xususiyatlari	**193**
Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich	Qoraqalpoq tilida antonimik munosabatdagi fe‘l so‘z turkumining guruhlari	**196**
Qodirova Xurshida Marselovna	Xorazm onomastlarining leksikografik faoliyati natijalari va dolzarb vazifalar	**199**
Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi	“Smile/tabassum” tushunchalarining ingliz va o‘zbek tillarida jins va yosh omillari asosida ifodalanishining lingvistik tahlili	**202**
Karimova Munisa Yaxyoyevna, Imamov Navruz Pattaqulovich	O‘zbek va ingliz tillarida fe’lning chegaralanmaganlik xususiyati va harakat tarzi qiyosiy tahlili	**205**
Dlanova Palzira Gulimbetovna	Talabalarda orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	**208**
Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich, Shomurotova Nigora Otabayevna	She’riy tarjimada milliy koloritning aks etishi	**211**
Каримова Ферузахон Иноятовна	Словообразование и анализ сложных слов английского и узбекского языков	**216**
Солиев Ибодуллохон Исматуллаевич	Механизмы внедрения институциональной автономии в ВУЗах узбекистана: опыт, проблемы и перспективы	**219**
Анварова Мафтунахон Дилмурод кизи	Эволюция концепта семьи в разных культурах	**221**
Саттарова Елена Анатольевна	Лингвистическое определение эвфемизмов в медицинской профессиональной речи	**224**
Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar kizi	Linguocultural Study of Proverbs in English and Uzbek Languages	**226**
Mirzayeva Gulnozakhon Ilkhamovna	A Comparative Analysis of Phraseological Units Depicting the Human Psyche in English and Uzbek	**229**
Polvanova Mahzuna Farxadovna	Analyzing the Grammatical Structure of Phraseologizms that Contain the Word “Money” in Both Uzbek and English	**231**
Rahmonova Gulhayo Khalilovna	The Peculiarities of Used Stylistic Devices in “The Portrait of the Artist as a Young Man” by James Joyce	**234**
Kodirova Dilrabo Shamsidinovna	Metonymic Transition of Words into Mining Terminology	**237**
Polvannazirova Sevara, Atajonova Zukhra	Navigating Linguistic and Cultural Complexities in Literary Translation: a Case Study of Utkir Hoshimov’s “Tarnov”	**241**